



2025

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI



“ZAMONAVIY TA'LIMDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”

**27-sentabr, 2025-yil
Namangan, O'zbekiston**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI PEDAGOGIK
MAHORAT MARKAZI**

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA
XXI ASR KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI”**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

**27-sentabr, 2025-yil
Namangan, O‘zbekiston**

6. Prensky, M. “Digital Game-Based Learning”. New York: McGraw-Hill – 2017

7. Tashkent State Pedagogical University. “Pedagogik texnologiyalar va dars metodikalari bo‘yicha qo‘llanma”. Toshkent: TSPU nashriyoti – 2022

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARINI INTEGRATIV O‘QITISHNING AMALDAGI HOLATI

Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi

CHDPU Maxsus pedagogika kafedrası dotsent v.b

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich ta’lim fanlarini integrativ o‘qitish jarayonining hozirgi amaliy holati, mavjud muammolar va yechim yo‘llari tahlil qilingan. Shu bilan birga, fanlararo integratsiyaning metodik asoslari, o‘quvchilarni rivojlantirishdagi o‘rni hamda integrativ yondashuvning samaradorligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, integratsiya, fanlararo yondashuv, metodika, ta’lim samaradorligi.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri — inklyuziv ta’limni rivojlantirish va uni umumta’lim tizimiga keng tatbiq etishdir. Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilar turli individual xususiyatlarga ega bo‘lsalar-da, ularning bilim olish huquqlari tengdir. Shu jihatdan, boshlang‘ich ta’lim fanlarini integrativ o‘qitish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtirish, ularning tafakkurini rivojlantirish va ijtimoiylashuvini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.[1,12-b]

Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich ta’lim fanlarini integrativ o‘qitish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalar jumladan maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni ham umumiy ta’lim jarayoniga teng huquqli ishtirokchi sifatida jalb etish tizimidir. Boshlang‘ich ta’limda inklyuziv yondashuvning muvaffaqiyati fanlarni integrativ asosda o‘qitishga bevosita bog‘liqdir. Chunki integrativ ta’lim bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularda yaxlit bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.[2,47-b]

Integrativ ta’lim — bu o‘quv fanlari mazmunini uyg‘unlashtirish orqali bolalarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirish jarayonidir. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya:

• **fanlararo bog‘liqlikni ta’minlaydi** (ona tili, atrof-muhit, matematika, texnologiya, tasviriy san’at – tabiatshunoslik kabi);

- o‘quvchilarda **tizimli bilimlarni** shakllantirishga yordam beradi;
- ularning **ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini** rivojlantiradi.

O‘tkazilgan kuzatuv va tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki inklyuziv ta’lim sharoitida integrativ yondashuv ko‘plab maktablarda to‘liq tatbiq etilmagan.[3,103b] Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- o‘qituvchilarning integratsiyaga oid metodik tayyorgarligi yetarli emas;
- mavjud darslik va o‘quv qo‘llanmalarda fanlararo bog‘lanish kam yoritilgan;
- maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun moslashtirilgan integrativ materiallar yetarli emas;
- fan o‘qituvchilari hamkorligida dars tashkil etish bo‘yicha samarali mexanizmlar yo‘lga qo‘yilmagan.

Shu bilan birga, ayrim maktablarda ijobiy tajribalar ham kuzatilmoqda. Masalan, matematika darsida geometrik shakllarni tasviriy san’at bilan uyg‘unlashtirish yoki tabiatshunoslik mavzularini o‘qitishda ona tili darslaridagi matnlar bilan bog‘lash samarali natija bermoqda.

Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich ta’lim fanlarini integrativ o‘qitish quyidagi xususiyatlarga ega:

- Differensial yondashuv: O‘quvchilarning intellektual, psixologik va jismoniy imkoniyatlari turlicha bo‘lgani uchun, fanlararo integratsiya differensial yondashuv asosida olib boriladi.
- Ko‘rgazmali va interfaol metodlar ustuvorligi: Maxsus ehtiyojli bolalar uchun mavzularni jonli tasvirlar, modellar, tajribalar, multimedia vositalari orqali tushuntirish samarali bo‘ladi.
- Hayotiy tajriba bilan bog‘liqlik: Integrativ darslarda nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan bog‘lanadi. Masalan, matematika darsida o‘lchov birliklarini tabiatshunoslik darsidagi kuzatuvlar bilan uyg‘unlashtirish.
- Hamkorlikda o‘qitish: O‘qituvchi va yordamchi pedagog (defektolog, logoped, psixolog) hamkorligida darsni tashkil etish integratsiyani samarali amalga oshiradi.
- Shaxsiy rivojlanish imkoniyati: Integrativ yondashuv nafaqat bilim berishga, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni, muloqot madaniyatini, ijodkorlikni rivojlantirishga qaratiladi.

Ilmiy-pedagogik tajribalar natijasida aniqlanishicha, fanlarni integrativ asosda o‘qitish:

- o‘quvchilarda **motivatsiyani oshiradi**,
- murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi,
- **o‘quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi**,
- inklyuziv ta’lim sharoitida barcha bolalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.

Amaldagi tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bu borada ayrim yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, darsliklarni qayta ko‘rib chiqish va moslashtirilgan materiallarni yaratish zarurati mavjud. Integrativ yondashuv ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ham ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich ta’lim fanlarini integrativ o‘qitish o‘quvchilarning bilimni yaxlit shakllantiradi, maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiylashuvga jalb etadi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдурахмонов Қ., Тўраев Б. Инклюзив таълимда интегратив ёндашув: назария ва амалиёт. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2022. – 156 б.
2. Ахмедова Ш. Бошланғич таълимда фанлараро боғланишни амалга оширишнинг методик асослари. // Педагогика илмий журнали. – 2023. – №4. – Б. 45–52.
3. Шарипова Г. Инклюзив таълим шароитида фанларни интегратив ўқитишнинг самарадорлиги. // Таълим ва инновatsiya. – 2024. – №2. – Б. 102–109.

XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Farsaxonova Mastura Jalol qizi

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
Jizzax davlat pedagogika universiteti

77	TABIIY FANLARNI O’QITISHDA 5E MODEL <i>Davletova Hamida Xasan qizi</i>	299
78	XXI ASR KO’NIKMALARI ASOSIDA TARIX FANI PEDAGOGIYALARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH: YUTUQ VA KAMCHILIKLAR. <i>Nabiyev Boxodir Muxamadumar o’g’li</i>	301
79	O’QUVCHILARNI O’QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI DARS JARAYONIDA SARAMARALI QO’LLASH USULLARI <i>Abdurahimova Iqbolxon Qodirjonovna</i>	304
80	INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA BOSHLANG’ICH TA’LIM FANLARINI INTEGRATIV O’QITISHNING AMALDAGI HOLATI <i>Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi</i>	311
81	XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O’ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA XXI ASR KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH <i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	313
82	BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINFI O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPITENSIYASINI RIVOJLANTIRISH <i>Shukurova Halima, Ahtamova Dilshoda</i>	318
83	BOSHLANG’ICH SINFI O’QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING YO’NALISHLARI VA USULLARI <i>Kulboyeva Dilnoza Abdug’ofurovna</i>	322
84	BOSHLANG’ICH TA’LIM O’QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY KREATIV FIKRLASHGA OID TOPSHIRIQLARNI O’TKAZISH YO’LLARI <i>G’oyibnazarova Nargiza Rakhimjonovna</i>	325
85	BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINFI O’QITUVCHILARINI IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI <i>Xamidova Barno Maxmudovna</i>	328
86	BOSHLANG’ICH SINFI O’QUVCHILARIDA MATEMATIK O’YINLAR ORQALI MANTIQUIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH <i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi</i>	331
87	TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O’QITUVCHILARNING O’ZINI-O’ZI RIVOJLANTIRISH VA REFLEKSIYA MADANIYATI	336